

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

BERDIYEV ANVAR ABDURAXMONOVICH

**INNOVATSIYALARNI JORIY ETISH ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH
KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Berdiyev Anvar Abduraxmonovich

Innovatsiyalarni joriy etish asosida xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish..... 3

Бердиев Анвар Абдурахмонович

Повышение эффективности сервисных предприятий на основе внедрения инноваций..... 27

Berdiyev Anvar Abdurakhmanovich

Increasing the efficiency of service enterprises through the introduction of innovations..... 53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 57

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

BERDIYEV ANVAR ABDURAXMONOVICH

**INNOVATSIYALARNI JORIY ETISH ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH
KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Iqt2132 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.karsu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Arabov Nurali Uralovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Bektemirov Abdumalik
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nazarbayev Orinbay
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot: Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.01.2020.I.20.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "15" yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel./faks: (99861) 223-60-78, (99861) 223-60-19; e-mail: karsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (248 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, CH.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78, e-mail: karsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "09" yanvar kuni tarqatildi.

(2025-yil "09" yanvar dagi № 62 raqamli reestr bayonnomasi).



S. Jond J.K.Sauxanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

R.B. R.B.Utemuratov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, PhD, dotsent

B.S. B.S.Qalmuratov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish asosida xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini ta'minlash, zamonaviy xizmat turlarini kengaytirish hamda korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. "Rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 65-80 %ni, ilm-fan va innovatsion faoliyatni investitsiyalashga sarflanayotgan mablag'lar hissasi esa 3,0 %ni tashkil etmoqda. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasidagi bandlar ulushi 70,0 %dan ziyodni va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmining 40,0 %i xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri kelmoqda"¹. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasiga innovatsiyalarni joriy etish asosida xizmatlar sifati va raqobatbardoshligi hamda korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Jahonda xizmat ko'rsatish sohasiga innovatsiyalarni keng joriy etish, soha korxonalarining innovatsion rivojlanish xususiyatlari va tamoyillarini aniqlash, servis korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, xizmatlar sifatini oshirish va raqobatbardoshligiga erishish, xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishning samarali usullarini joriy etish, korxonalarda innovatsion loyihalar samaradorligini oshirish kabi yo'nalishlardagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida xizmat ko'rsatish sohasiga innovatsiyalarni joriy etish asosida korxonalarda xizmat ko'rsatish intensivligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan maqsadli dasturlar va chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish orqali xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda 36 mingta savdo va servis obyektlarini tashkil etish"² kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni hal etishda xizmat ko'rsatish sohasiga innovatsiyalarni keng joriy etish, korxonalarda innovatsion faoliyat samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish, xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion loyihalar samaradorligini oshirish kabi yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlarni chuqurlashtirish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 30-sentabrdagi PF-6318-son "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 16-iyundagi PQ-4752-son "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27-apreldagi 246-son "Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ <http://stats.oecd.org/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/6600413>

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Servis iqtisodiyotining shakllanishi, innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi, resurslardan samarali foydalanish, raqobatning shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik masalalarining fundamental asoslari xorijlik olimlar, jumladan, J.M.Keyns, M.Porter, Y.A.Shumpeter, K.X.Haksever, B.R.Render, R.S.Rassel, R.G.Merdik va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan³.

Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsiyalarni joriy etish asosida korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish masalalari xorijlik olimlar, jumladan: L.Demidova, Ye.F.Avdokushin, L.N.Ogoleva, T.D.Burmenko, V.A.Bespalov, V.M.Mishin, V.A.Demidov, N.N.Lebedeva, O.S.Oleinik, A.P.Yegorshin, S.A.Zaichenko va boshqalar tomonidan o‘rganilgan⁴.

Ushbu muammolarni o‘rganishga O‘zbekistonlik olimlardan M.E.Po‘latov, M.Q.Pardayev, J.K.Sauxanov, Q.J.Mirzayev, I.S.Tuxliyev, N.U.Arabov, G.X.Utemuratova, X.M.Abdusattarova va boshqalarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan⁵.

Ammo yuqorida keltirilgan olimlarning asarlarida innovatsiyalarni joriy etish asosida xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishning ayrim

³ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. сангл. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – М.: МИЭМП, 2010; Портер М.Э. Конкуренция / пер. с англ. – М.: Изд. дом «Вильямс», 2005. – 808 с.; Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия [Текст]/ Й. Шумпетер: пер. с англ. предисл. В.С. Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.; Управление и организация в сфере услуг: теория и практика: Service Management and Operation – 2-е международ. изд. (пер. с англ. под науч. ред. В.В.Кулибановой) / К.Х.Хаксевер, Б.Р.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик. – СПб., 2002. – 751 с.

⁴ Демидова Л. Сфера услуг: изменение динамики производительности/Л.Демидова // Мировая экономика и международные отношения, 2006, №12. – С. 40-52.; Авдокушин Е.Ф. и др. Новая экономика: монография / Под ред. Е.Ф.Авдокушина, Б.С. Сизова. – М.: Магистр. 2009. – 542 с.; Оголева Л.Н. Инновационный менеджмент: учеб. Пособие [Текст] / Л.Н. Оголева – М.: Инфра-М, 2010. – 238 с.; Бурменко Т. Д. Сфера услуг: экономика: учебное пособие / Т.Д. Бурменко, Н.Н. Даниленко, Т. А. Туренко; под ред. Т.Д. Бурменко. – М.: КНОРУС, 2007. – С. 661.; Беспалов В. А. Государственная научно-техническая и инновационная политика: учеб. пособие / Б.А. Беспалов Д.Б. Рыгалин; Моск. гос. ин-т электрон. техники (техн. ун-т.). – М., 2007. – 92 с.; Мишин В.М. Управление инновациями: учебник [Текст]/ В.М.Мишин, Н.П.Масленникова, В.П.Баранчев. – М.: Юрайт, 2014. – 720 с.; Демидов В. А., Лебедева Н.Н., Олейник О.С. Региональная инновационная система: потенциал и тенденции развития. – Волгоград: Изд-во Волгоградского гос. ун-та. 2008. – 316 с.; Егоршин А.П. и др. Управление инновационным развитием региона. Монография. – Нижний Новгород: НИМБ, 2008. – 283 с.; Заиченко С.А. Развитие инноваций в сфере услуг // Форсайт. 2007. – № 1. – С. 30–33.

⁵ Пардаев М.Қ., Исройилов Ж.И., Гаппаров А.Қ. Хизмат кўрсатиш соҳасида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш муаммолари. Рисола. – Самарқанд: Зарафшон, 2009. – 66 б. – 4,1 б.т.; Пўлатов М.Э., Мирзаев Қ.Ж., Султонов Ш.А., Шавқиев Э. Глобал иқтисодий ривожланиш (туризм иқтисодиёти). Ўқув қўлланма. – Т.: Фан ва технология, 2018. – 296 б.; Sauxanov J.K., Zarikееva M.M. Evrozaziya ekonomikalıq shólkeminiń salıq sistemasın integraciya processleri sharayatında sahistırmalı talıqlaw. // QQDU Habarnomasi. – Нукус, 2023. № 2. – Б. (60) 109–111.; Тухлиев И.С., Ҳайитбоев Р., Сафаров Б.Ш., Турсунова Г.Р. Туризм асослари. Дарслик. – Т.: Фан ва технология, 2014. – 332 б.; Арабов Н.У., Артиков З.С. Сервис корхоналарида хизмат кўрсатиш сифатини ошириш. // Инсон капитали ва ижтимоий ривожланиш журнали. – Самарқанд: СамДУ, № 1, 2021. – Б. 153–164.; Утемуратова Г.Х. Хизмат кўрсатиш соҳасида давлат-хусусий шериклиги ривожланишининг методолгик асосларини такомиллаштириш. Иқт. фан. док. (DSc) дисс. – Нукус, 2023; Абдусаттарова Х.М. Инновация стратегияси. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2011. – Б. 10.

jihatlarini o'rganilgan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari kompleks tadqiqot sifatida qisman o'z aksini topgan. Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiyalarni joriy etish asosida korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish bilan bog'liq tadqiqotlar yetarli darajada emasligi ushbu mavzuda chuqur ilmiy-uslubiy izlanishlarni amalga oshirishni zarurat etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasini samarali rivojlantirishning innovatsion usullari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi innovatsiyalarni joriy etish asosida xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"innovatsiya" va "innovatsion faoliyat" kategoriyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etish hamda mualliflik yondashuvini shakllantirish;

xizmat ko'rsatish korxonalarining innovatsion rivojlanish xususiyatlari, tamoyillari va shart-sharoitlarini aniqlash;

xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini baholash usullarini aniqlash;

Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish holatini tahlil etish;

xizmat ko'rsatish korxonalarining innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil etish;

xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarish usullarini tahlil etish;

xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion loyihalar samaradorligini oshirish;

Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishini istiqbollashtirish;

xizmat ko'rsatish korxonalarida tashkiliy innovatsiyalarni joriy etish asosida boshqaruv samaradorligini oshirish yo'llarini bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini sifatida Samarqand viloyati xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlari va korxonalarini faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmetini bo'lib, innovatsiyalarni joriy etish asosida xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatining samaradorligini oshirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, statistik va solishtirma tahlil, abstrakt-mantiqiy yondashuv, ekspert baholash, regression-korrelyasion tahlil va ekonometrik modellashtirish va prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni integral baholashga yondashuv innovatsiyalar holatining sifat xususiyatlarini past ($0 \leq I_k < 0,33$), o'rta ($0,34 \leq I_k < 0,80$) va yuqori ($0,81 \leq I_k < 1,00$) darajali guruhlariga tabaqalashtirish hamda korxonalar innovatsion rivojlanishining real dinamikasini aniqlash asosida takomillashtirilgan;

innovatsiyalarga ko'ra xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyati samaradorligini oshirishda innovatsion loyiha realizatsiyasi modeli loyiha imkoniyati, bozor jozibadorligi, xarajat samaradorlik kabilar bilan bir qatorda loyihani to'rt bosqichda amalga oshirish asosida takomillashtirilgan;

Samarqand viloyatida xizmatlar sohasining barqaror rivojlanish dinamikasi hamda jami ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmini oshirishning 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni baholash yondashuvi faoliyat samaradorligini rivojlantirishning tub yo'nalishi hisoblangan – inson kapitalini rivojlantirishning qiyosiy baholash natijalariga ko'ra takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

iqtisodiyotda innovatsiya va innovatsion faoliyatning rivojlanish xususiyatlarini tavsiflovchi ilmiy yondashuvlarni nazariy jihatdan tahlil etish asosida “innovatsiya” va “innovatsion faoliyat” kategoriyalarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga oid mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

xizmat ko'rsatish korxonasida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishning xizmatlarni iste'molchilarga yo'naltirilganligi, xizmat ko'rsatish jarayonlarining kognitivligi, komplekslik, o'zaro muvofiqlik va integratsiya, selektivlik hamda analitik ta'minot va axborot bazasini shakllantirish tamoyillari ishlab chiqilgan;

xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshqarish tizimi tashqi va ichki muhit parametrlarini hisobga olgan holda innovatsion salohiyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan maqsadlar tizimini shakllantirish hamda innovatsion rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat statistika agentligi va uning hududiy tashkilotlarining statistik ma'lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va tavsiyalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan xizmat ko'rsatish sohasiga innovatsiyalarni keng joriy etish, servis korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini baholash usullarini tasniflash, xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishning samarali usullarini joriy etish, korxonalarda innovatsion loyihalar samaradorligini oshirish yo'nalishlarida ilmiy apparatni boyitishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish, korxonalarda innovatsion faoliyatni boshqarishning samarali usullarini joriy etish, korxonalarda

innovatsion loyihalar samaradorligini oshirish, sohaga oid me'yoriy hujjatlarni tayyorlash, shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasini samarali rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda hamda "Iqtisodiyot nazariyasi", "Innovatsion iqtisodiyot", "Xizmat ko'rsatish tarmoqlar iqtisodiyoti" fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xizmat ko'rsatish sohasiga innovatsiyalarni joriy etish asosida korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni integral baholashga yondashuv innovatsiyalar holatining sifat xususiyatlarini past ($0 \leq I_k < 0,33$), o'rta ($0,34 \leq I_k < 0,80$) va yuqori ($0,81 \leq I_k < 1,00$) darajali guruhlarga tabaqalashtirish hamda korxonada innovatsion rivojlanishining real dinamikasini aniqlash asosida takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan "2024-2025-yillarda xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish" dasturini tayyorlashda foydalanilgan (Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 30-avgustdagi 08-10-25-13945-son ma'lumotnomasi). Taklif korxonalarda innovatsion faoliyatni obyektiv baholash darajasini oshirishga ko'ra boshqaruv qarorlarining optimalligini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

innovatsiyalarga ko'ra xizmat ko'rsatish korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishda innovatsion loyiha realizatsiyasi modeli loyiha imkoniyati, bozor jozibadorligi, xarajat samaradorlik kabilar bilan bir qatorda loyihani to'rt bosqichda amalga oshirish asosida takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan "2024-2025-yillarda xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish" dasturini tayyorlashda foydalanilgan (Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 30-avgustdagi 08-10-25-13945-son ma'lumotnomasi). Taklif innovatsion loyihani realizatsiya qilishning turli bosqichlarida xizmat ko'rsatish subyektlarining innovatsion loyihalari samaradorligini oshirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilgan;

Samarqand viloyatida xizmatlar sohasining barqaror rivojlanish dinamikasi hamda jami ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmini oshirishning 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan "2024-2025-yillarda xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish" dasturini tayyorlashda foydalanilgan (Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 30-avgustdagi 08-10-25-13945-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish 2030-yilga kelib, Samarqand viloyatida jami xizmatlar hajmini 26,7 %ga va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmini 28,2 %ga oshishi imkonini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni baholash yondashuvi faoliyat samaradorligini rivojlantirishning tub yo'nalishi hisoblangan – inson kapitalini rivojlantirishning qiyosiy baholash natijalariga ko'ra takomillashtirish bo'yicha taklif O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan "2024–2025-yillarda xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish" dasturini tayyorlashda foydalanilgan (Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 30-avgustdagi 08-10-25-13945-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklif sohada

innovatsion faoliyatni baholash ko'rsatkichlarini tizimlashtirish orqali korxonada innovatsiyalarni joriy etishdan kutilayotgan samarani aniqlash imkonining kengaytirilishiga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, respublika miqyosida 2 ta va xalqaro darajada 3 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 144 sahifada bayon qilingan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyati samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida iqtisodiyotda innovatsion va innovatsion faoliyatning rivojlanish xususiyatlarini tavsiflovchi ilmiy yondashuvlarni nazariy jihatdan tahlil etish asosida “innovatsiya” kategoriyasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni bo'yicha mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan hamda xizmat ko'rsatish korxonalarining innovatsion rivojlanish xususiyatlari, tamoyillari va shart-sharoitlari aniqlangan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini baholash ko'rsatkichlari alohida yo'nalishlar bo'yicha ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan.

Iqtisodiyotda innovatsion faoliyat fan-texnika taraqqiyot yo'nalishlari, ijodiy va amaliy ishlanmalar hamda tadqiqot natijalarini bevosita amaliyotga joriy qilishga yo'naltirilgan jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Xizmat ko'rsatish sohasi zamonaviy iqtisodiyotning sanoat rivojlanishi bosqichidan keyin jadal sur'atlarda barqaror shakllanib borayotgan sohalaridan biri bo'lib, bevosita innovatsion tizimning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Chunki u respublikamiz iqtisodiyotini samarali rivojlantirishning asosiy sohasi hisoblanadi. Yangicha sharoitda innovatsiyalar tadbirkorlik faoliyatining muhim qismi sifatida shakllanib, foydalanilayotgan texnik-texnologik darajani hisobga olgan holda xizmat ko'rsatish korxonalarini raqobatbardoshligini ta'minlashning asosiy elementi hisoblanadi.

Innovatsiya – bu yangi g‘oyalarni izlash, mahsulotlarni yaratish va amaldagi mahsulotni takomillashtirish, ilmiy-texnik va texnologik yangiliklar va tadqiqotlarni amaliyotga joriy etish, ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) jarayoni, marketing, mehnatni tashkil etishning zamonaviy uslublari va boshqaruv tizimidagi o‘zgarishlarni o‘z ichiga olgan hamda yangicha hayotiy davrini amalga oshirish jarayoni sifatida bozorda realizatsiya qilish asosida talab va taklif muvofiqligiga erishish bosqichini namoyon qiluvchi faoliyat natijasidir.


Innovatsion faoliyat – innovatsion g‘oya va ishlanmalarni tashkil etish, ishlab chiqarish sohasida ularning qo‘llanilishi va amalga oshirilishini ta‘minlovchi faoliyat. Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish tadbirkorlik faoliyatining moslashuvchan shakli sifatida xizmatlar sifatini yaxshilanishi va qulay xizmat turlari bilan ta‘minlashga erishishni nazarda tutadi. Aynan shu sohada o‘rta va yirik biznesni rivojlantirishning asosiy muhiti bo‘lgan yangi g‘oyalar shakllanadi.

Iqtisodiyotdagi transformatsion jarayonlarda innovatsion faoliyat zamonaviy xizmat ko‘rsatish tarmoqlari rivojlanishining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, sohada innovatsion faoliyatni realizatsiya qilishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Shuning uchun, birinchi navbatda xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish elementlari va usullarini tadqiq etish eng asosiy masalalar qatoridan o‘rin oladi. Tadqiqot jarayonida xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishning xizmatlarni iste‘molchilarga yo‘naltirilganligi, xizmat ko‘rsatish jarayonlarining kognitivligi, komplekslilik, o‘zaro muvofiqlik va integratsiya, selektivlik hamda analitik ta‘minot va axborot bazasini shakllantirish tamoyillari ishlab chiqildi.

Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsiya va innovatsion jarayonlarni quyidagi asosiy yo‘nalishlarga: ya‘ni, innovatsion jarayonning mazmuni, xususiyatlari, darajasi, ishlab chiqish va tarqatish darajasi, yangilik darajasi, innovatsion salohiyat, ishlab chiqish va ommalashtirish sohalari bo‘yicha ajratish mumkin (1-rasmga qarang). Ushbu rasmda keltirilgan tasnif iqtisodiyotga joriy etish darajalari bilan bog‘liq holda to‘ldirilishi kerak. Mazkur darajalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1) birinchi darajali innovatsiyalar – xizmat ko‘rsatishning korxonalaridagi yangi texnika va texnologiyalar; 2) mikrodarajadagi innovatsiyalar – korxonalar va tashkilotlar, kompaniyalar, xo‘jalik subyektlari darajasida ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish)ga yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish; 3) makrodarajadagi innovatsiyalar – milliy iqtisodiyot darajasida fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari natijalari asosida yangi texnika, texnologiyani joriy etishni ta‘minlovchi innovatsion-investitsion loyihalar va dasturlarlarni amaliyotga joriy etish.

Demak, innovatsiyalarni iqtisodiyotga joriy etish darajalari milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini boshqarish samaradorligini oshirish, tarmoqlarda moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Ammo shuni ta‘kidlash kerakki, innovatsion infratuzilmaning rivojlanish darajasi innovatsion faoliyatning samaradorligini belgilaydi.

Innovatsion faoliyatning samaradorligi ko'p jihatdan innovatsion infratuzilmaning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Innovatsion infratuzilma – bu innovatsion faoliyatni samarali amalga oshirish va innovatsiyalarni realizatsiya qilish uchun zarur va yetarli darajadagi o'zaro bog'liq bo'lgan, bir-birini to'ldiruvchi tizimlar va ularning tegishli tashkiliy va boshqaruv tizimlari majmuidir.



1-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiyalar va innovatsion jarayonlar tasnifi yo'nalishlari⁶

Innovatsion infratuzilma quyi tizimlar sifatida quyidagi tizimlarni o'z ichiga olgan murakkab tashkiliy-texnik tizim sifatida shakllanishi lozim: innovatsion loyihani yuqori sifatli realizatsiya qilish uchun zarur bo'lgan tezkor ishonchli ma'lumotlar va bilimlar asosida innovatsion bazani ta'minlaydigan texnik apparat va dasturiy ta'minot tizimlari tomonidan barcha manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar uchun turli xil shart-sharoitlarda innovatsion ma'lumotlar bazalari va bilimlarga kirishni ta'minlaydigan axborot ta'minoti tizimi; innovatsion loyihani yaratish jarayonining barcha bosqichlarini moslashuvchan avtomatlashtirishni amalga oshiradigan texnik apparat va dasturiy ta'minot tizimlari tomonidan xizmat ko'rsatuvchi instrumental ta'minot tizimi; korxonalarda yangi raqobatbardosh ilm-

⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

fanni talab qiluvchi mahsulotlar, yuqori texnologiyalar va innovatsiyalarni yaratish va ularni amaliy rivojlantirishni loyihalash, texnologik va ishlab chiqarishni ta'minlash tizimi; kompleks ekspertiza (ilmiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ishlab chiqarish-investitsion, ekologik va h.k.) va innovatsiyalarni sertifikatlashni yuqori professional va sifatli o'tkazilishini ta'minlovchi hamda innovatsion faoliyat subyektlar tomonidan taqdim qilinadigan metrologiya, standartlashtirish va sifat nazorati sohasidagi xizmatlarni taqdim qiluvchi ilmiy-texnik va innovatsion dasturlar, loyihalar, takliflar va arizalarni ekspertizadan o'tkazish va sertifikatlash tizimi; bu monitoring, marketing, reklama va ko'rgazma faoliyatni, patent-litsenziyalash ishlarini va intellektual mulkni himoya qilishni ta'minlashi kerak bo'lgan hududlar, tarmoqlar, korxonalar monitoringi va innovatsiyalar va fan sig'imi yuqori mahsulot (xizmat)larni yaratish tizimi; innovatsion faoliyatni bevosita va bilvosita davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, turli budjetdan tashqari manbalardan (mahalliy tadbirkorlik tuzilmalarining resurslari va investitsiyalari) faol foydalangan holda innovatsion faoliyatni muvofiqlashtirish va tartibga solish hamda uni moliyaviy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash tizimi; innovatsion loyihalarni tashkil etish va realizatsiya qilishni ta'minlovchi, kasbiy tayyorgarlikdan o'tgan va amaliy innovatsiyalar bo'yicha tajribaga ega rahbarlar tomonidan taqdim etilgan kadrlar tayyorlash tizimi.

Innovatsiyalar samaradorligini baholashning umumiy iqtisodiy tamoyili bo'lib, undan olingan samara (natija) va xarajatlarni solishtirish hisoblanadi. Shunga ko'ra, xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni baholash usuli inson kapitalini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqotlarni moliyalashtirish, innovatsion faoliyat subyektlari soni, innovatsion xizmatlar hajmi hamda innovatsiyalarga qilingan xarajatlar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni guruhlash asosida takomillashtirildi.



2-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion rivojlanishni taqqoslama baholash ko'rsatkichlari⁷

⁷ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni baholash ko'rsatkichlarini tizimlashtirish jarayonini amalga oshirish alohida ahamiyatga ega. Bunda xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion rivojlanishni taqqoslama baholash ko'rsatkichlari tizimi besh guruhdan iborat ko'rsatkichlarni o'z ichiga qamrab oladi (2-rasmga qarang). **Birinchi guruhga** inson resurslari soni va sifatini belgilovchi ko'rsatkichlar tegishlidir: fan sohasida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining barcha o'quv yurtlarini bitiruvchilarga nisbatan ulushi; ilmiy darajaga ega xodimlar va diplom mavjud muhandislar ulushi; o'rta va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarda ishlovchilar ulushi; yuqori texnologiyali xizmatlar sohasida band bo'lganlar ulushi. **Ikkinchi guruh** uchta ko'rsatkichni o'z ichiga oladi: ilmiy-tadqiqot sohasini budjetdan moliyalashtirish hajmi (yalpi ichki mahsulotga nisbatan %da); xususiy tadbirkorlik tomonidan ilmiy-tadqiqot sohasini moliyalashtirish hajmi (yalpi ichki mahsulotga nisbatan % da); bir million aholiga yuqori texnologiyali sanoatda qo'llaniladigan patentlar soni. **Uchinchi guruh** bilimlarni uzatishning turli jihatlari bo'yicha o'lchov parametrlarini o'z ichiga oladi: uy xo'jaliklarining innovatsion sohasida faoliyat yuritayotgan kichik va o'rta korxonalar soni; innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi kichik va xususiy korxonalar soni; ishlab chiqarish sohasidagi innovatsion xarajatlarning yalpi foydaga nisbati. **To'rtinchi guruh** ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat: venchur investitsiyalar yalpi ichki mahsulotga nisbatan %; yangi bozorlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan kapitallashuvi darajasi, %; ishlab chiqarish sektorining umumiy bozorida yangi mahsulot (xizmat)larni sotish ulushi, %; har 100 aholi soniga to'g'ri keladigan internetdan foydalanuvchilar soni; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bozori hajmini YaIMdagi ulushi, %da; xizmat ko'rsatish sohasida jami xizmatlar hajmida yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushining o'zgarishi. **Beshinchi guruh ko'rsatkichlari** xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiyalarga qilingan xarajatlar samaradorligini ifodalaydi: texnologik innovatsiyalarni o'zlashtirishga xarajatlar hajmi; zamonaviy xizmatlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilishga umumiy xarajatlar hajmi; innovatsiyalarni joriy qilish natijasida xizmatlar realizatsiyasidan tushim; innovatsiyalarni joriy qilish natijasida xizmatlar realizatsiyasidan olingan yalpi foyda; innovatsiyalar rentabelligi ko'rsatkichi.

Korxonaning innovatsion faoliyati samaradorligini baholash kompleks yondashilgan holda tizimlilik, moslashuvchanlik, egiluvchanlik tamoyillari asosida baholash jarayonini amalga oshirilishi va individual baholash tizimidan foydalanishni o'z ichiga olishi kerak. Tovar (xizmat) va texnologik innovatsiyalar xizmat ko'rsatish korxonalarini uchun innovatsiyalarning texnologik, mahsulot, jarayon, tashkiliy kabi umumiy oqimida asosiy texnologik bosqichlarni modernizatsiya qilishda ishtirok etadigan eng muhim vositalar hisoblanadi.

Mehnatni to'g'ri tashkil etish va xizmat ko'rsatish korxonalarining xizmat ko'rsatish jarayonlarini boshqarish tashkiliy innovatsiyalar bo'lib, tashkiliy-boshqaruv komponentini hisoblash olingan natijalarning subyektivligi sababli ekspert baholash usuli asosida aniqlanadi va yetkazib beruvchilar bozorini batafsil tahlil qilish asosida marketing komponenti hisoblanadi. Shu bois, bu komponentlar integral ko'rsatkich formulasini hisoblashda alohida ahamiyatga ega. Demak,

to'rtta komponent va ularning vazn koeffitsientlari hisoblash asosida integral ko'rsatkich aniqlanadi. Hisoblangan ko'rsatkichlar asosida integral ko'rsatkich (I_k) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi⁸:

$$I_k = I_i + I_{it} + I_{icht} + I_m, \quad (1)$$

bu yerda, I_i – intellektual komponentning ko'rsatkichi;

I_{it} – ilmiy tadqiqot komponenti ko'rsatkichi;

I_{icht} – ishlab chiqarish-texnik komponent ko'rsatkichi;

I_m – moliyaviy ko'rsatkich komponenti.

Mazkur komponentlar ($I_i, I_{it}, I_{icht}, I_m$) quyidagi formula asosida hisoblanadi⁹:

$$I = (\sum_{i=1}^n K_i) / n, \quad (2)$$

bu yerda, K_i – yuqorida keltirilgan guruhlarda ko'rsatkichlarning qiymati;

n – guruhlardagi ko'rsatkichlar soni.

1-jadval

Xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni baholashning integral ko'rsatkichi tavsifi¹⁰

Darajasi	Innovatsiyalar qiymatining (diapazoni) oralig'i	Korxonada baholanayotgan davrda innovatsiyalar holatining sifat xususiyatlari
Yuqori H	$0,81 \leq I_k < 1,00$	Korxonada innovatsion salohiyatning a'lo darajadagi holati
O'rta M	$0,34 \leq I_k < 0,80$	Korxonada innovatsion salohiyatning o'rtacha holati
Past L	$0 \leq I_k < 0,33$	Integral ko'rsatkichning bunday qiymatida korxonada nobarqaror, yani yomon hisoblanadi

Xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni baholashning integral ko'rsatkichini aniqlash usuli (1) va (2) formulalarda keltirilgan. Shunga asoslangan holda, 1-jadvalda integral ko'rsatkich qiymatining izohi keltirilgan. Bunda xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlanish darajasi innovatsiyalar qiymatining (diapazoni) oralig'i bo'yicha keltirilgan 0-1 oralig'idagi koeffitsientlar orqali aniqlanadi. Korxonada baholanayotgan davrda innovatsiyalar holatining sifat xususiyatlari yuqori, o'rta va past darajadagi koeffitsientlar orqali belgilandi (1-jadvalga qarang). Xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsiyalar samaradorligini baholashda innovatsion faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni hisobga olish zarur. Agarda korxonaning intellektual salohiyatini ko'rib chiqish vaqti innovatsiyalar samaradorligi ko'rsatkichlari bilan birgalikda kompleks ko'rib chiqilsa, u holda ishning muayyan davri uchun baholashni taqqoslash korxonaning innovatsion rivojlanishining real dinamikasini ko'rsatadi.

⁸ Инновационная политика: учебное пособие для бакалавриата и магистратуры / К.Н.Назин [и др.] под редакцией К.Н.Назина, Д.И.Кокурина, С.И.Агабекова. – Москва: Издательство Юрайт, 2019. – 232 с. – (Бакалавр и магистр. Академический курс). – ISBN 978-5-534-10445-5. – Текст: электронный // ЭБС Юрайт [сайт]. <https://urait.ru/bcode/430030>

⁹ Левкина Е.В. Оценка эффективности инновационной деятельности отраслевых систем на мезоуровне (на примере рыбной промышленности Приморского края) // Вопросы инновационной экономики. 2017. Т. 7. № 3. – С. 225-234.

¹⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Dissertatsiya ishining “Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarining innovatsion rivojlanish holati va ko‘rsatkichlari tahlili” deb nomlangan ikkinchi bobida Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanish holati, xizmat ko‘rsatish korxonalarining innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarish usullari tadqiq qilingan.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi tez sur‘atlar bilan namoyon bo‘lmoqda. Innovatsion iqtisodiyotning dinamik rivojlanish tendensiyasi iste‘molchilar talabini to‘liqroq qondirish va iqtisodiyotning zamonaviy tarmoqlarida mehnat unumdorligini yuqori darajada oshirish imkonini beradi. Shunga ko‘ra, respublikamiz iqtisodiyotini samarali rivojlantirishda uning an‘anaviy resurslarga asoslangan modelining muhim muqobil varianti sifatida texnika va texnologiyalar, ilm-fanning oxirgi natijalari hamda yaxlit holda jamiyat hayotini uzluksiz yuksalishini ta‘minlash maqsadida inson kapitalidan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan innovatsion rivojlanish strategiyasiga o‘tish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

2-jadval

Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasi va tarmoqlarida xizmatlar turlari bo‘yicha hajmi¹¹ (mlrd. so‘m)

Sohalar va tarmoqlar	Yillar					2019-yil 2023- yillarda o‘sish, (%)
	2019	2020	2021	2022	2023	
Jami xizmatlar Shu jumladan:	12786,8	14086,1	18259,0	22953,6	28992,0	2,3 marta
Aloqa va axborotlashtirish	633,7	716,9	835,8	1073,7	1318,4	2,1 marta
Moliya xizmatlari	1712,7	2123,6	2613,2	3590,7	4541,0	2,6 marta
Transport xizmatlari	3152,9	3371,1	4604,7	5383,4	6805,1	2,2 marta
Shu jumladan: avto- transport xizmatlari	2889,3	3252,1	4335,5	5002,6	6180,5	2,1 marta
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	461,4	400,0	629,6	1063,8	1717,5	3,7 marta
Savdo xizmatlari	3648,9	4205,2	5175,9	6239,8	7511,1	2,1 marta
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	329,4	321,7	466,8	567,2	681,7	2,1 marta
Ta‘lim xizmatlari	556,8	694,2	1003,6	1202,0	1578,7	2,8 marta
Sog‘liqni saqlash xizmatlari	193,8	260,7	341,2	464,4	585,2	3,0 marta
Ijara va prokat xizmatlari	404,6	423,6	548,4	662,0	771,3	190,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta‘mirlash	349,5	367,7	538,3	650,7	821,3	2,3 marta
Shaxsiy xizmatlar	522,5	545,0	761,3	999,7	1286,9	2,5 marta
Me‘morchilik sohasidagi xizmatlar	313,8	321,1	318,3	370,1	477,5	152,2
Boshqa turdagi xizmatlar	506,8	335,3	421,9	686,1	896,3	176,9

¹¹ Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi Samarqand viloyat statistika boshqarmasi ma‘lumotlari.

Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish maqsadida hududiy dasturlar amalga oshirilib, zamonaviy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini kengaytirish asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda jami xizmatlar hajmi 2023-yilda 28992,0 mlrd. so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 2,3-martaga o'sgan. Viloyatda 2019-2023-yillarda eng yuqori o'sish sur'atlariga ega tarmoqlar sifatida yashash va ovqatlanish xizmatlari (3,7 marta), sog'liqni saqlash xizmatlari (3,0 marta), ta'lim xizmatlari (2,8 marta), moliyaviy xizmatlar (2,6 marta), shaxsiy xizmatlar (2,5 marta) va kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2,3 marta) hissasiga to'g'ri kelgan (2-jadval).

3-jadval

Samarqand viloyati xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida innovatsion faoliyatning asosiy ko'rsatkichlari, %¹²

№	Ko'rsatkichlar	Yillar				
		2019	2020	2021	2022	2023
1.	Korxonaning innovatsion faolligi (hisobot davrida texnologik, tashkiliy, marketing innovatsiyalarini amalga oshiruvchi korxonalarining tekshiruv o'tkazilgan korxonalarini umumiy sonidagi solishtirma salmog'i)	8,4	8,5	8,6	9,1	9,5
2.	Hisobot davrida texnologik innovatsiyalarni amalga oshiruvchi korxonalarining tekshiruv o'tkazilgan korxonalarini umumiy sonidagi solishtirma salmog'i	6,5	6,8	6,8	7,5	7,8
3.	Innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlarning jami tovarlar, bajarilgan ishlar va xizmatlardagi solishtirma salmog'i	4,1	4,5	4,6	5,8	6,3
4.	Texnologik innovatsiyalarga qilingan xarajatlarni jami tovarlar, bajarilgan ishlar va xizmatlardagi solishtirma salmog'i	1,0	1,2	1,2	1,5	1,9
5.	Hisobot davrida tashkiliy innovatsiyalarni amalga oshiruvchi korxonalarining tekshiruv o'tkazilgan korxonalarini umumiy sonidagi solishtirma salmog'i	1,1	1,2	1,3	1,7	1,9
6.	Hisobot davrida marketing innovatsiyalarini amalga oshiruvchi korxonalarining tekshiruv o'tkazilgan korxonalarini umumiy sonidagi solishtirma salmog'i	2,2	2,3	2,3	2,5	2,5

Keyingi yillarda respublikamizda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shunga ko'ra, ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faollikni baholash bo'yicha korxonalarining statistik hisobotlari hamda ekspress baholash asosida innovatsion faoliyatning asosiy ko'rsatkichlari tahlil etildi. Tahliliy ma'lumotlarga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, respublikamizda innovatsion faoliyatning institutsional asoslarini takomillashtirish va uning

¹² Muallif tomonidan Samarqand viloyati sanoat korxonalarini rahbarlari va mutaxassislari bilan ekspress baholash (tanlanma) orqali olingan ma'lumotlar hamda korxonalarining statistik hisobotlari asosida tuzilgan.

rag‘batlantiruvchi tizimini rivojlantirish natijasida korxonalarda innovatsion faollikni oshirishga motivatsiya ham o‘zgarmoqda (3-jadvalga qarang).

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida resurslardan oqilona foydalanish yo‘llarini aniqlovchi vosita sifatida xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish manbalari va omillarini tadqiq etish muhimdir. Xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni baholashning integral ko‘rsatkichi tavsifiga asoslangan holda korxonaning innovatsion faoliyati rivojlanishini har tomonlama baholash usulini “SAMARQAND XOLIS FAYZ SAVDO” MChJ misolida amalga oshirildi. Xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni baholashning integral ko‘rsatkichini hisoblash yuqorida keltirilgan (1) va (2) formulalar asosida amalga oshirildi. Bunda amalga oshirilgan tahlil jarayoni dissertatsiyada batafsil keltirilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, 2021-yil uchun hisob-kitob natijasi – 0,67, 2022-yilda – 0,68 va 2023-yilda – 0,71 ni tashkil etdi (4-jadvalga qarang). Olingan qiymatlar “SAMARQAND XOLIS FAYZ SAVDO” MChJning innovatsion salohiyatining yaxshi holatini ko‘rsatadi, bu savdo korxonasi uchun tabiiy holdir. Korxonada xizmat ko‘rsatish jarayonlarining avtomatlashtirish darajasini o‘shirib borishi va 2023-yilga kelib 65,2 %ga yetishi ijobiy hol hisoblanadi. Binobarin, innovatsion faoliyat natijalarini yaxshilash bo‘yicha asosiy tavsiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish yoxud raqamlashtirish darajasini oshirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

4-jadval

“SAMARQAND XOLIS FAYZ SAVDO” MChJni 2021-2023-yillarda innovatsion faoliyatining integral ko‘rsatkichi hisobi¹³


Ko‘rsatkichlar	2021-y.	2022-y.	2023-y.
I_i	1,21	1,24	1,26
I_{it}	0,558	0,567	0,601
I_{icht}	0,6	0,6	0,6
I_m	0,3	0,3	0,4
I_k	0,67	0,68	0,71

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘pgina xizmat ko‘rsatish korxonalarining mavjud qiyin iqtisodiy va moliyaviy ahvoriga qaramay, hozirgi vaqtda ularning innovatsion faolligini oshirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Buning asosiy sababi xizmatlar bozoridagi raqobatning kuchayib borishidir. Shuning uchun korxonalar tegishli moliyaviy, kadrlar va moddiy-texnika resurslari, shuningdek, innovatsion jarayonlar sohasida kadrlarni maxsus tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish zarur. Tahlil qilingan savdo korxonasi faoliyatining xususiyatlarini hisobga olgan holda innovatsion faoliyatni baholash metodikasi uning innovatsion faoliyatini obyektiv tadqiq etish va uni takomillashtirish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishning optimalligini oshirish imkonini beradi.

Ko‘pgina xizmat ko‘rsatish korxonalarida tashqi ma’lumotlarni strategik boshqarishning yashirin imkoniyatlarini anglamaydilar, ular o‘z hududida yoki

¹³ Muallif tomonidan “SAMARQAND XOLIS FAYZ SAVDO” MChJ hisobotlari asosida tuzilgan.

mintaqasida kvazimonopol pozitsiyani egallaydilar. Shuning uchun ular xizmatlar sifatini oshirish yoki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishni maqsad qilmaydi.



3-rasm. Innovatsion jarayonlarni boshqarish tizimi parametrlarini shakllantirishning asosiy shartlari¹⁴

Innovatsiyalarni boshqarish sohasidagi strategiyalar – bu korxonaga o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarning ushbu vositalar bilan kombinatsiyasidir. Tadqiqot jarayonida xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshqarish tizimi tashqi va ichki muhit parametrlarini hisobga olgan holda innovatsion salohiyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan maqsadlar tizimini shakllantirish hamda innovatsion rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish asosida takomillashtirildi (3-rasmga qarang).

Dissertatsiya ishining **“Innovatsiyalarni joriy etish asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari va sohani rivojlantirish istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsion loyihalar samaradorligini oshirish yo‘llari aniqlangan va Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishining istiqbol

¹⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish korxonalarida tashkiliy innovatsiyalarni joriy etish asosida boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

